
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Kholmuradova L.E., Axmadova G.K.	Games for developing communicative skills in primary school	507
Axmadaliyeva X.A.	The effectiveness of developing life skills among grade 10–11 students through the CLIL approach	517
Abdurasulova N.A.	Fostering professional readiness among tourism students through contextualized English language learning	527
Ismailov Y.N.	Intangible cultural heritage as an object of didactic authenticity in German language teaching (a comparison of Germany and Uzbekistan)	535
Djurayeva M.Sh.	Project tasks based on comparative analysis of culturally situated communication in English speaking classes	543
Rakmankulova N.Kh.	Pedagogical conditions for developing the cognitive competence of future teachers through facilitative interaction	553
TRANSLATION		**564**
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	Translation strategies for culture-bound units in Chinese spring festival greetings into Uzbek	565
Uzakova L.A.	Translation issues of wedding-related phraseological units and the degree of equivalence	573
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	National and cultural concepts in Chinese mid-autumn festival (中秋节) greetings and their translation into Uzbek	582
Akhmedova A.N., Mirzayeva M.B.	Contextual semantics of literary portrait units and their functional correspondence in translation	590
Akhmedova A.N., Batirova Kh.E.	Grammatical and Syntactic Transformations in the Translation of Short News Items of Higher Education Institutions between Uzbek and English	601
HISTORY		**609**
Namazov A.T.	Uzbekistan 1930–1939: the period of the Latin alphabet	610
CONTENTS		**615**

The Lingua Spectrum
Volume 10, October 2026

Grammatical and Syntactic Transformations in the Translation of Short News Items of Higher Education Institutions between Uzbek and English

Anorkhon Nasivali kizi Akhmedova
anora_axmedova@uzswlu.uz
Associate Professor (DSc),
Uzbek State World Languages University

Khurshida Egamberdiyevna Batirova
x.botirova@uzswlu.uz
Teacher,
Uzbek State World Languages University

Annotation *The article examines grammatical and syntactic transformations observed in the translation of short news items of higher education institutions between Uzbek and English. The material consists of the Uzbek and English versions of news published in 2025 on the official websites of four universities and institutes. The study describes sentence splitting, the conversion of participial modifiers into relative clauses, voice shifts, and the rendering of verbal nouns through verbal and gerundial constructions. It also considers the omission of information, the use of generalizing units, and changes in modal and temporal meaning. The findings show that a substantial restructuring of a sentence does not necessarily affect its content, whereas a minor modal or tense difference may alter the pragmatic meaning of a message. The article proposes three criteria for evaluating such transformations: semantic accuracy, factual completeness, and pragmatic equivalence. It is also noted that, when only finished texts are compared, the cause of a change cannot be reliably established.*

Keywords *Translation, grammatical-syntactic transformation, short news, voice shift, omission, pragmatic equivalence*

O‘zbek va ingliz tillaridagi oliy ta’lim muassasalari qisqa yangiliklari tarjimasida grammatik-sintaktik transformatsiyalar

Axmedova Anorxon Nasivali qizi
anora_axmedova@uzswlu.uz
(DSc) dotsent,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Batirova Xurshida Egamberdiyevna
x.botirova@uzswlu.uz
O‘qituvchi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi oliy ta’lim muassasalari qisqa yangiliklari tarjimasida uchraydigan grammatik-sintaktik transformatsiyalar tahlil qilinadi. Material sifatida to‘rtta universitet va institutning rasmiy saytlaridagi 2025-yilga oid yangiliklarning o‘zbekcha hamda inglizcha versiyalari olingan. Tadqiqotda gapni ajratish, aniqlovchini ergash gapga aylantirish, nisbat almashinuvi, harakat nomini fe’lli yoki gerundiyli ifodaga o‘tkazish kabi hodisalar tavsiflanadi. Shuningdek, axborotning tushirilishi, umumlashtiruvchi birliklar hamda modal va zamon ma’nosining o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gap qurilishining keskin o‘zgarishi mazmunning saqlanishiga to‘sqinlik qilmasligi, aksincha, kichik*

modal yoki zamon farqi xabarning pragmatik ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Tahlilda har bir hodisa misollar asosida izohlanib, grammatik shaklning o'zgarishi bilan mazmuniy natija o'rtasidagi munosabat ochib beriladi. Natijalar oliy ta'lim yangiliklarini ikki tilda tayyorlovchi mutaxassislar va tarjimashunoslik yo'nalishidagi tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega. Maqolada transformatsiyalarni baholash uchun semantik aniqlik, faktual to'liqlik va pragmatik ekvivalentlik mezonlari taklif etiladi. Mezonlar tarjima sifatini gap uzunligi yoki sintaktik modelning mosligiga qarab baholashdan farqli, mazmunga tayanadi. Shuningdek, tayyor matnlarni qiyoslash orqali o'zgarish sababini aniqlash imkoniyati cheklanganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar *Tarjima, grammatik-sintaktik transformatsiya, qisqa yangilik, nisbat almashinuvi, tushirib qoldirish, pragmatik ekvivalentlik*

Грамматико-синтаксические трансформации при переводе кратких новостей высших учебных заведений с узбекского языка на английский

Ахмедова Анорхон Насивали кизи
anora_axmedova@uzswlu.uz
Доцент (DSc),
Узбекский государственный университет мировых языков

Батирова Хуршида Эгамбердиевна
x.botirova@uzswlu.uz
Преподаватель,
Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация *В статье анализируются грамматико-синтаксические изменения, наблюдаемые при переводе кратких новостей высших учебных заведений с узбекского языка на английский. Материалом послужили узбекские и английские версии новостей 2025 года, размещённых на официальных сайтах четырёх университетов и институтов. В работе описываются членение предложения, преобразование причастного определения в придаточное предложение, замена залога, передача отглагольных существительных глагольными и герундиальными конструкциями. Отдельно рассматриваются опущение информации, использование обобщающих единиц, а также изменение модального и временного значения. Результаты показывают, что существенная перестройка структуры предложения не всегда нарушает содержание, тогда как небольшое модальное или временное расхождение способно изменить прагматический смысл сообщения. Каждое явление поясняется примерами, что позволяет показать связь между изменением грамматической формы и смысловым результатом. Выводы могут быть полезны специалистам, которые готовят новости вузов на двух языках, и исследователям в области переводоведения. В статье предлагаются критерии оценки трансформаций: семантическая точность, фактическая полнота и прагматическая эквивалентность. Критерии опираются на содержание*

сообщения, а не на длину предложения. Подчёркивается, что при сопоставлении готовых текстов причину изменения установить невозможно.

Ключевые слова *Перевод, грамматико-синтаксическая трансформация, краткая новость, замена залога, опущение, прагматическая эквивалентность*

Rasmiy veb-saytlarda joylashtiriladigan qisqa yangiliklar oliy ta'lim muassasalarining xalqaro auditoriya bilan aloqa o'rnatishdagi muhim vositalaridan biriga aylangan. Bunday matnlarning o'zbekcha va inglizcha versiyalari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, gap qurilishi, ishtirokchilarning ifodalanishi va axborotning joylashuvi jihatidan farqlanadi. Bu farqlarning bir qismi ikki tilning grammatik tizimidan kelib chiqadi, boshqasi esa matnni ixcham, izchil va yangi o'quvchi uchun tushunarli qilish ehtiyoji bilan bog'liq. Shu bois tarjima ekvivalentligini faqat so'zlarning semantik mosligi bilan emas, gap tuzilishi, uslub va pragmatik ta'sir bilan birga o'rganish lozim.

Maqolaning maqsadi 2025-yilda e'lon qilingan oliy ta'lim muassasalari yangiliklari misolida grammatik-sintaktik o'zgarishlarning asosiy turlarini tavsiflash hamda ularning mazmuniy natijasini baholash mezonlarini asoslashdan iborat. Material sifatida Alfraganus universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti (O'zMU), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O'zDJTU) va Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining (TMII) rasmiy saytlaridagi yangiliklarning ikki tildagi versiyalari tanlandi. Tahlilda qiyosiy-tavsifiy usul va kontekstual tahlil qo'llandi.

Grammatik shaklning almashishi mazmunning saqlanishini ham, o'zgarishini ham bildirishi mumkin, shuning uchun bu ikki jihatni ajratib ko'rish kerak. Molina va Hurtado Albir tarjima usuli, strategiyasi va texnikasi tushunchalarini farqlab, tarjima matnidagi aniq o'zgarishni baholashda uning kommunikativ vazifasiga tayanishni taklif qiladi (Molina va Hurtado Albir, 2002). Shu qarashdan kelib chiqsak, gap qurilishining almashishi o'z-o'zidan muvaffaqiyat yoki kamchilik belgisi emas: natija asliyatdagi axborot tarjimada qanday saqlanganiga bog'liq. Yangilik tarjimasida axborotni saralash masalasini yoritgan Vuorinen esa tushirib qoldirishni tarjima matnida uchraydigan matniy amallardan biri sifatida ko'radi (Vuorinen, 1997).

Til birliklarining tarjimada almashinuvi tarjimashunoslikda anchadan beri o'rganilgan. Katford bunday o'zgarishlarni "translation shifts" deb atagan (Catford, 1965), Vine va Darbelne esa so'z turkumi yoki grammatik toifaning ma'noni o'zgartirmasdan almashishini transpozitsiya deb tavsiflagan (Vinay va Darbelnet, 1995). Nayda ekvivalentlikni asliyat va tarjimaning qabul qiluvchiga ta'siri bilan bog'lab, dinamik ekvivalentlik g'oyasini ilgari surgan (Nida, 1964), Beyker esa grammatik va pragmatik ekvivalentlikni bir-biridan alohida ko'rib chiqadi (Baker, 2018). Yangilik tarjimasi esa oddiy so'zma-so'z ko'chirish emas, tahrir va moslashtirishni ham o'z ichiga olishi mumkin (Bielsa va Bassnett, 2009).

Grammatik-sintaktik transformatsiya deganda asliyatdagi mazmunni boshqa tilda ifodalashda gap qurilishi, grammatik shakl yoki sintaktik munosabatlarning o'zgarishi tushuniladi. Masalan, murakkab gap bir necha gapga bo'linishi, harakat nomi fe'l bilan almashishi yoki majhul nisbat aniq nisbatga o'tishi mumkin. Bunday hodisalarning hammasida shakl o'zgaradi, ammo mazmuniy natija bir xil bo'lmaydi: ba'zan ishtirokchilar va

ular o‘rtasidagi munosabat to‘liq saqlanadi, ba’zan esa bajaruvchining mavqei, voqeaning aniqlik darajasi yoki xabarning urg‘usi o‘zgaradi. Bu maqolada “strategiya” atamasi kuzatilgan matniy o‘zgarishning funksional tavsifi sifatida ishlatiladi, chunki tayyor matnlar o‘zgarishni kim va qanday maqsadda kiritganini ko‘rsatmaydi.Qisqa yangiliklarda eng ko‘p uchraydigan hodisalardan biri o‘zbekcha uzun gapning inglizchada ikki gapga bo‘linishidir. Alfraganus universitetining 2025-yil 12-apreldagi yangiligida talabalar tomonidan ertak sahnalari, milliy raqslar va o‘yinlar tashkil etilgani hamda “Navro‘z taomlari” ko‘rgazmasi o‘tkazilgani bitta gapda, ravishdosh yordamida bog‘langan. Inglizcha versiyada birinchi qism *During the event, the students organized fairy tale performances...* gapiga, ko‘rgazma haqidagi qism esa *An exhibition of ‘Navruz Dishes’ was also held* gapiga ajratilgan. Har bir voqea o‘z grammatik markaziga ega bo‘lgan, ammo hech bir fakt yo‘qolmagan.

TMIIning 2025-yil 27-maydagi yangiligida qoidalarning buyruq bilan tasdiqlanishi va Adliya vazirligi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi o‘zbekcha matnda bitta uzun gapga sig‘dirilgan. Inglizchada bu ikki harakat alohida gaplarda berilgan: birinchisida hujjatni tasdiqlagan mansabdor va buyruq raqami, ikkinchisida ro‘yxatga olgan organ va ro‘yxat raqami (3625) ko‘rsatilgan. Sana va raqamlar saqlangan, ikki huquqiy harakat hamda ularni bajargan turli organlar esa aniqroq ajratilgan. Demak, bu yerda sintaktik bo‘lish faktual mazmunni buzmay, uning tarkibiy qismlari munosabatini oydinlashtirgan.

Biroq gapni bo‘lish har doim aniqlikni oshirmaydi. Alfraganus universitetining 2025-yil 13-martdagi yangiligida tadbirlar soni, ularning natijalari, maktablar bilan hamkorlik va kelgusi vazifalar o‘zbekcha gapda zich qurilmada berilgan, ayrim joylari grammatik jihatdan noaniq. Inglizcha versiyada ma’lumot ikki gapga ajratilgan: avval 300 ta tadbir va 415 ta onlayn loyiha soni, so‘ng natijalar, hamkorlik va kelgusi rejalar keltirilgan. Matn o‘qishga qulaylashgan, lekin *kelgusidagi vazifalar belgilab olindi* birikmasi *future plans were discussed in detail* shaklida berilgan. Vazifalarni belgilash natijaviy harakat, muhokama qilish esa jarayon bo‘lgani uchun bu ikki ifoda mazmunan to‘liq teng emas. Demak, sintaktik soddalashtirish bilan mazmuniy aniqlikni alohida mezonlar asosida baholash zarur.

Alfraganus universitetining 2025-yil 7-maydagi yangiligida “DETEKTIV IQ” o‘yinida 100 ta jamoa orasida g‘olib chiqqan Turizm fakulteti jamoasi haqida so‘z boradi. O‘zbekchada sifatdoshli birikma ot oldida ixcham aniqlovchi vazifasini bajargan, inglizchada esa u *which emerged victorious among 100 teams* ergash gapi orqali berilgan. Bundan tashqari, *tanlov nizomiga ko‘ra* holi inglizcha gap boshiga chiqarilgan (*According to the rules of the competition...*). Yangi fakt qo‘shilmagan: g‘alaba, 100 ta jamoa va rektor bilan kechki ovqat imkoniyati ikkala versiyada ham mavjud. Shu bilan birga, hol komponentining gap boshiga chiqishi o‘quvchi e’tibori avvalo qaysi jihatga qaratilishini belgilaydi, ya’ni sintaktik qayta tashkil etish axborotni qabul qilish ketma-ketligiga ham ta’sir qiladi.

O‘zbek rasmiy yangiliklarida harakat nomlari hamda *amalga oshirish*, *tashkil etish*, *rivojlantirish* kabi birikmalar faol qo‘llanadi. Inglizchada bunday mazmun kontekstga qarab infinitiv, gerundiy, otlashgan birikma yoki shaxsli fe’l bilan beriladi. O‘zMUning 2025-yil 8-fevraldagi yangiligida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va san’atga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash maqsadi *In order to develop... and support...* tarzida ifodalangan. Maqsad munosabati saqlangan, o‘zgargani uning grammatik shaklidir: o‘zbekchada harakat nomi va *maqsadida* birligi, inglizchada *in order to* va infinitiv ishlatilgan. Bu leksik almashtirish emas, balki grammatik vositalar o‘rtasidagi funksional moslikdir.

O‘zMUning 2025-yil 11-iyuldagi Zaltsburg universiteti bilan hamkorlikka oid yangiligida professor-o‘qituvchilar ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish imkoniga

ega bo‘lishi aytilgan. Inglizchada bu mazmun *will be able to implement* shaklida berilgan. Otli-predikativ qurilma modal fe’lli konstruksiyaga aylangan, asosiy ma’no, ya’ni loyihalarni bajarish imkoniyatining paydo bo‘lishi esa saqlangan. Bu misol shuni ko‘rsatadiki, asliyatdagi har bir grammatik komponent tarjimada alohida birlik sifatida berilishi shart emas; asosiy mezon ularning birgalikda bildirgan ma’nosidir.

TMIIning IT-Park bilan memorandumiga oid yangiligida grantlar va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, startap-ekotizimini rivojlantirish, amaliyot va amaliy darslarni tashkil etish yo‘nalishlari inglizchada *implementation of...*, *development of...* va *organizing...* shakllarida, ya’ni otlashgan hamda gerundiyli ifodalar bilan berilgan va ro‘yxat tarzida satrlarga ajratilgan. Shakllar bir xil emas, biroq ularning vazifasi, ya’ni hamkorlik yo‘nalishlarini sanash saqlangan; ro‘yxat ko‘rinishi esa yo‘nalishlarni bir-biridan aniqroq ajratgan.

Yangilikda harakat bajaruvchisining ifodalanishi xabarning qabul qilinishiga ta’sir qiladi. Bunda grammatik egani harakatning haqiqiy bajaruvchisi bilan tenglashtirmaslik kerak: majhul nisbatli gapda ham bajaruvchi kontekstdan ma’lum bo‘lishi mumkin. Alfraganus yangiligida *talabalar tomonidan... tashkil etilib* birikmasi *the students organized* deb berilgan. Semantik bajaruvchi, ya’ni talabalar o‘zgarmagan, faqat ularning gapdagi maqomi ko‘makchili to‘ldiruvchidan ega darajasiga ko‘tarilgan. Teskari holat O‘zMUning 2025-yil 4-apreldagi fuqaro muhofazasiga oid yangiligida kuzatiladi: prorektor tadbirni kirish so‘zi bilan ochgan aniq nisbatli gap inglizchada *The event was opened with an introductory speech by...* shaklida majhul nisbatga o‘tgan, biroq tadbirni kim ochgani haqidagi ma’lumot saqlangan.

TMII yangiligida esa *Qoidalar tasdiqlandi* majhul qurilmasi *the Director... approved the Regulations...* faol qurilmasiga aylangan va hujjatni tasdiqlagan mansabdor grammatik ega o‘rniga chiqqan. O‘zMU va Zaltsburg universiteti hamkorligi haqidagi yangilikda shaxssiz *kelishib olindi* shakli *both universities agreed* ko‘rinishida berilib, kelishuv tomonlari ochiq ko‘rsatilgan. O‘zDJTUning Indoneziya bilan malaka oshirish kursiga oid yangiligida esa lavozim va shaxs nomi inglizchada izohlovchi birikma orqali qayta tashkil etilgan. Bu o‘zgarishlarni umumiy qoida deb bo‘lmaydi: bajaruvchi noma’lum, ahamiyatsiz yoki asliyatda ataylab ko‘rsatilmagan bo‘lsa, faol nisbatni tanlash mazmuniy aniqlikka putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun har bir misolda bajaruvchi qanday ifodalanganini alohida tekshirish kerak.

Tarjimada axborotning ifodalanmasligini faqat matn hajmiga qarab baholab bo‘lmaydi: gap tushib qolgan bo‘lsa ham, uning ayrim komponentlari boshqa gapga ko‘chirilgan yoki umumlashtirilgan bo‘lishi mumkin. Voqeaning vaqti, joyi, ishtirokchisi yoki natijasi haqidagi ma’lumot bilan umumiy tarixiy izohning tushirilishi bir xil oqibatga ega emas (Vuorinen, 1997). O‘zMUning 2025-yil 21-oktabrdagi BMT modeliga oid yangiligida o‘zbekcha matn tashkilotning maqsadlari, Nizom kuchga kirgan sana va universitetda o‘tkaziladigan haftalik haqidagi kirish bilan boshlanadi, inglizcha versiya esa bevosita shu kuni o‘tkazilgan tadbir haqidagi xabardan boshlanadi. Asosiy voqea, ishtirokchilar va muhokama qilingan masalalar saqlangan, tushuntiruvchi kontekst esa qisqargan. Bu farqni mutlaq ustunlik yoki kamchilik deb emas, mazmuniy hajm va axborotni taqdim etish usulidagi o‘zgarish deb baholash lozim.

Kichikroq ko‘rinishdagi tushirish O‘zDJTUning 2025-yil 17-fevraldagi “Yosh tadqiqotchilar” klubiga oid yangiligida uchraydi. Asliyatda talabalar konferensiyada turli sho‘balarda faol ishtirok etgani yozilgan, inglizchada esa faqat faol ishtirok etgani aytilgan. Ishtirok haqidagi asosiy ma’lumot saqlangan, tashkiliy tafsilot, ya’ni sho‘balar haqidagi qism tushib qolgan. Shu yangilikning boshqa qismida ravishdoshli qurilma inglizchada asosiy fe’l va *-ing* shaklli qo‘shimcha predikativ qurilma bilan berilgan

(*presented... exchanging knowledge and experience*), bunda harakatlar o‘rtasidagi munosabat saqlangan. Demak, bir yangilikda tafsilotning qisqarishi va grammatik moslikning saqlanishi birga kuzatilishi mumkin.

Qo‘shilgan birlik har doim yangi fakt kiritmaydi, lekin xabarning aniqlik yoki ishonchlilik darajasiga ta’sir qilishi mumkin. O‘zDJTUning 2025-yil 23-apreldagi Argentina universiteti bilan hamkorlikka oid yangiligida o‘zbekcha matn hamkorlikning kelgusi natijalarini qat’iy tasdiq shaklida bayon qilgan, inglizchada esa *is expected to enhance... raise... and open...* birikmasi qo‘llangan. Natija kafolatlangan voqea sifatida emas, kutilayotgan prognoz sifatida berilgan. Grammatik jihatdan kichik bu qo‘shimcha xabarning pragmatik mazmunini o‘zgartiradi. Shunga qaramay, tayyor matnlarga tayanib tarjimon qat’iylik darajasini ataylab kamaytirgan degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

TMIIning doktorlik dissertatsiyalari amaliy ahamiyatiga bag‘ishlangan seminar haqidagi yangiligida sanab o‘tilgan masalalar *key issues were thoroughly discussed, including...* qurilmasi bilan boshlangan. Umumlashtiruvchi birlik keyingi sanash uchun grammatik asos yaratgan, shu bilan birga *key* so‘zi muhokama qilingan masalalarni muhim deb baholash ma’nosini ham kiritgan. O‘zDJTU va Buxoro davlat pedagogika instituti memorandumi haqidagi yangilikda esa asliyatda hamkorlik doirasida amalga oshiriladigan faoliyatlar inglizchada *It also includes...* birikmasi bilan memorandumning tarkibiy yo‘nalishlari sifatida berilgan. Birinchisida kelgusida bajariladigan ishlar, ikkinchisida hujjat mazmuni oldingi o‘ringa chiqadi.

Zamon ma’nosining almashishi esa faktual aniqlikka bevosita ta’sir qiladi. TMIIning IT-Park bilan memorandumiga oid yangiligida o‘zbekcha *hamkorlik yo‘lga qo‘yildi* birikmasi inglizchada *cooperation will be established* shaklida berilgan. Birinchi variant hamkorlik tashkil etilganini, ikkinchisi esa kelgusida tashkil etilishini bildiradi. Memorandum imzolangani haqidagi asosiy voqea saqlangan, lekin rasmiy faoliyat qaysi bosqichda ekanligi haqidagi tasavvur o‘zgargan. Shu sababli rasmiy yangiliklarda ishning bajarilgani, rejalashtirilgani yoki bajarilishi nazarda tutilayotganini farqlash alohida ahamiyatga ega. Shu yangilikka yaqin yana bir holat: muhandislik tanlovi haqidagi xabarda bitta jumla inglizcha versiyada ketma-ket ikki marta berilgan. Bu takror yangi mazmun bermaydi va uni ongli qo‘shish deb talqin qilish uchun asos yo‘q: u tarjima, tahrir yoki materialni bazaga kiritish bosqichlaridan birida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi misollar gap qurilishining o‘zgarishi bilan mazmuniy natija o‘rtasida qat’iy biryoqlama bog‘liqlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Gap sezilarli darajada qayta tuzilganda ham asosiy ma’lumotlar to‘liq saqlanishi mumkin, aksincha, grammatik jihatdan sodda bitta modal yoki zamon komponentining o‘zgarishi xabar ma’nosiga kuchli ta’sir qilishi mumkin. Shu bois ekvivalentlikni faqat gap uzunligi yoki sintaktik modelning mos kelishiga qarab baholash yetarli emas. Tahlil uchun uch mezonni ajratish maqsadga muvofiq: semantik aniqlik (harakat ma’nosi va ishtirokchilar munosabatining to‘g‘ri berilishi), faktual to‘liqlik (muhim ma’lumotlarning yo‘qolmasligi) va pragmatik ekvivalentlik (xabarning aniqlik, baholash va auditoriyaga yo‘naltirilganlik xususiyatlari qanday ifodalangani).

Rasmiy yangiliklarda bu mezonlarga institutsional uslubning izchilligi ham qo‘shiladi: qaror, memorandum yoki xalqaro tadbir haqidagi xabarda harakatni bajargan shaxs, tashkilot maqomi va ishning bajarilgan yoki rejalashtirilganligi aniq ifodalanishi kerak. Grammatik ravonlik mazmuniy ishonchlilikni o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi, shuning uchun sintaktik vositalarning tabiiyligi va faktual aniqlik o‘zaro bog‘liq, ammo alohida baholanadigan talablardir. Kuzatilgan hodisalar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Hodisa	Manba	Tarjimadagi natija
Bitta gapning ikkiga ajratilishi	Alfraganus, TMII	Asosiy voqealar saqlangan; rasmiy harakatlar va ularning subyektlari aniqroq farqlangan
Axborotni qayta guruhlash	Alfraganus	Bayon izchillashgan, biroq “vazifalarni belgilash” mazmuni “muhokama qilish” mazmuniga yaqinlashgan
Sifatdoshli aniqlovchining ergash gap bilan berilishi	Alfraganus	Voqea va ishtirokchilar munosabati saqlangan
Nisbat almashinuvi (faol ↔ majhul)	Alfraganus, O‘zMU, TMII	Bajaruvchi saqlangan, grammatik ega o‘zgargan; ayrim hollarda bajaruvchi aniqroq ko‘rsatilgan
Axborotning tushirilishi	O‘zMU, O‘zDJTU	Asosiy voqea saqlangan, tushuntiruvchi kontekst yoki tashkiliy tafsilot qisqargan
Modal birlikning qo‘shilishi	O‘zDJTU	Kelgusi natijaning qat’iylik darajasi o‘zgargan
Umumlashtiruvchi birlik qo‘shilishi	TMII	Bayon izchillashgan, qo‘shimcha baholovchi ma’no paydo bo‘lgan
Zamon ma’nosining almashishi	TMII	Faoliyatning amalga oshish bosqichi boshqacha ifodalangan
Jumlaning takrorlanishi	TMII	Mazmuniy zaruratsiz takror; kelib chiqishi aniqlanmagan

1-jadval. *Oliy ta’lim muassasalari qisqa yangiliklarida kuzatilgan grammatik-sintaktik va tahririy o‘zgarishlar*

Tahlil o‘zbek va ingliz tillaridagi oliy ta’lim yangiliklari tarjimasida gapni ajratish, aniqlovchini ergash gapga aylantirish, nisbatni almashtirish, harakat nomini fe’lli yoki gerundiyli ifoda bilan berish, axborotni tushirish hamda modal va zamon ma’nosini o‘zgartirish kabi hodisalar mavjudligini ko‘rsatdi. Ularning ayrimi ikki tilning grammatik xususiyatlaridan, ayrimi matnni ixcham va izchil bayon qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Gap qurilishining katta o‘zgarishi mazmunni buzmasligi, kichik modal yoki zamon farqi esa xabarning pragmatik ma’nosini o‘zgartirishi mumkinligi aniqlandi. Shuning uchun transformatsiyalarni semantik aniqlik, faktual to‘liqlik va pragmatik ekvivalentlik mezonlari asosida birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, tayyor asliyat va tarjima matnlari asosida nima o‘zgargani aniqlanadi, ammo o‘zgarishni tarjimon, muharrir yoki boshqa mas’ul xodim kiritgani va uning maqsadi matniy qiyoslash orqali ishonchli belgilanmaydi. Ikki tildagi yangilik bir manbadan tarjima qilingan, tahrir qilingan yoki alohida tayyorlangan bo‘lishi mumkin, shu sababli matnlar o‘rtasidagi farqni qayd etish bilan uning kelib chiqish sababini izohlashni ajratish zarur.

References:

1. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). Routledge.
2. Bielsa, E., & Bassnett, S. (2009). *Translation in global news*. Routledge.

3. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay in applied linguistics*. Oxford University Press.
4. Molina, L., & Hurtado Albir, A. (2002). Translation techniques revisited: A dynamic and functionalist approach. *Meta*, *47*(4), 498–512.
5. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating*. E. J. Brill.
6. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation* (J. C. Sager & M.-J. Hamel, Trans. & Eds.). John Benjamins.
7. Vuorinen, E. (1997). News translation as gatekeeping. In M. Snell-Hornby, Z. Jettmarová, & K. Kaindl (Eds.), *Translation as intercultural communication: Selected papers from the EST Congress—Prague 1995* (pp. 161–171). John Benjamins.